ZO‘RAVONLIK QURBONLARIGA PSIXOLOGIK YORDAM BERISH

Eshankulova Irodaxon Avazxanovna
Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti
e-mail: irabonu@mail.ru

Anotatsiya: Maqolada zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha muhim tavsiyalar hamda takliflar keltirilgan. Zo‘ravonlik inson uchun ham psixologik ham jismoniy jihatdan juda og‘ir travmalardan hisoblanadi. Ayollarga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik nafaqat ayolning o‘ziga balki, uning yaqinlariga hamda farzandlarining hayotiga ham ta’sir qiladi. Shu sababli zo‘ravonlikka uchragan ayollarga psixologik yordam juda muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, jabrlanuvchi, najot, zo‘ravon, ota-ona, farzand, stress, affekt, jarohat, depressiya.

Abstract: The article contains important recommendations and suggestions for providing assistance to women who are victims of violence. Violence is one of the most severe traumas for a person, both psychologically and physically. Violence against women affects not only the woman herself, but also the lives of her relatives and children. That is why psychological support for women who have suffered violence is very important.

Key words: violence, victim, rescue, abuser, parent, child, stress, affect, injury, depression.

Yurtimizda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, uy sharoitidagi zo‘ravonliklarda ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq aziyat chekadilar. So‘nggi yillarda ayollar bilan bog‘liq juda ko‘plab mudhish voqealar sodir bo‘lmoqda. Aynan shuning uchun ham davlatimizda yechimi topilishi lozim bo‘lgan muammolar soni ortib bormoqda. Muhtaram prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ayollar sha’ni va qadr-qimmatini yuksaltirish uchun ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan yurtboshimiz tomonidan zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarga yordam tizimini yaratish, oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning oldini olish va uning mudhish oqibatlariga barham berishga qaratilgan Qarori qabul qilindi. Ya’ni oilaviy zo‘ravonlik masalasiga davlat miqiyosida e’tibor qaratildi. Aksincha bo‘lishi mumkin ham emas, chunki muammo allaqachon oila qo‘rg‘oni devorlaridan tashqariga chiqib, globallashib, katta ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda. Yurtimizda oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha **8** ta normativ huquqiy hujjat (**2** ta qonun, **1** ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori va **5** ta Hukumat qarori) qabul qilindi. Xususan**,** “Og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini

ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni davlat rahbarining 2021-yil 19-maydagi tegishli qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqildi. Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonunlariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritildi. Mohiyatan ushbu qonun 2019-yilda **“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”**gi qonunning qabul qilish bilan asos solingan me’yoriy huquqiy bazani tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu qonun xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga jalb etilgan tuzilma va idoralarning vazifalarini aniqlashtirib, ularning o‘zaro muvofiqlashgan faoliyatini takomillashtirishga zamin hozirladi. Unda nazarda tutilgan eng muhim o‘zgarishlardan biri – bu fuqarolar yig‘inlarining vakolatlari kengaytirilishi bo‘ldi. Unga ko‘ra, fuqarolar yig‘inining tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni himoya qilishga doir chora-tadbirlarni belgilashi, shuningdek mazkur faktlar to‘g‘risida tegishli ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari hamda ichki ishlar organlarini zudlik bilan xabardor qilishi nazarda tutilgan. Bu juda muhim, chunki ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari ko‘proq oilada qayd etiladi, oila esa mahallaning bir qismi. Zo‘ravonlikka qo‘l urgan shaxs va bunday holatlar qayd etilgan oila, hattoki ularning ajdodlari haqida aynan mahalla fuqarolar yig‘inlarida ishonchli ma’lumotlar bo‘ladi. Ba’zida huquq-tartibot organlarining choralaridan ko‘ra mahalla ahlining munosabati zo‘ravon xulqini o‘zgartiruvchi asosiy omil bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan tegishli normalarning yangi qonunga kiritilishi ayollarga nisbatan oiladagi zo‘ravonlikni bartaraf etish borasidagi sa’y-harakatlarning ta’sirchanligini oshiradi.

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik inson huquqlarining eng keng tarqalgan va yashirin buzilishlaridan biridir. Ma’lumki, oiladagi zo‘ravonlik oilaning barbod bo‘lishiga sabab bo‘ladi, uning a'zolariga salbiy ta'sir o‘tkazadi, bolalarda ruhiyat buzilishlarini keltirib chiqaradi va butun jamiyat salomatligini yomonlashtiradi. O‘z oilasida zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollar bilan psixologik ish olib borishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Avvalo, zo‘ravonlik qurbonlari bilan ishlash niyatida bo‘lgan psixologlar uchun zo‘ravonlik sabablari va u bilan bog‘liq muammolarni tushunish uchun yetarli bilim, ko‘nikma va amalaka talab etiladi. Bugungi jamiyatda jabrlanuvchilarning o‘zlariga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonliklarda ma’lum darajada “o‘zlari aybdor”, degan qarashlar keng tarqalgan. Ko‘pincha, jamoatchilik oiladagi zo‘ravonlikka bunday huquqbuzarliklarning og‘irligini hisobga olmagan holda, faqat “shaxsiy” yoki “oilaviy masala” sifatida qaraydi. Shu bilan birga, qarindoshlar ham, rasmiylar ham ayolni ko‘pincha ayblashadi.

Aynan Himoya orderining joriy qilinish oiladagi zo‘ravonlikni oldini olish uchun amaliy mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Raqamlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2020-yilda **14 ming 774 nafar** ayolga himoya orderi berilgan bo‘lsa, 2021-yilning 10 oyida esa **32 ming 154 nafar** ayol bunday orderdan foydalandi va o‘z huquqlarini himoya qildi. Himoya orderidan foydalangan ayollar sonining oshishi muammolar ko‘payganligini anglatmaydi. Aksincha, bu jamiyatimizda ayollar orasida huquqiy madaniyatning oshib borayotgani va joylarda profilaktika inspektorlari samarali faoliyat yuritayotganidan darak beradi.

Zo‘ravonlik qurboniga aylangan o‘zbek ayollarining juda kam qismi tegishli joyga murojaat qilishi, ularning aksariyati qo‘rquv va boshqa sabablar bilan tazyiqlarga toqat qilishga majbur bo‘lishadi. Shunday bo‘lsada, haqiqiy raqamlarga nazar tashlasak bundan ancha yuqoriligini anglash mumkin. So‘nggi yillarda **87 foiz ayol yaqinlaridan jabr ko‘rganligi aniqlangan.** Guruhlarga bo‘linganda: 106 ta jinsiy, 234 ta iqtisodiy, **18 777 ta ruhiy, 13 658 ta jismoniy** zo‘ravonlik hamda 7 174 ta tazyiq holatlari aniqlangan. Eng yomoni, zo‘ravonlik holatlarining 34 330 tasi yoki 87 foizi oilada sodir etilgan.

Demak, bir yilda taxminan 40 mingga yaqin ayol zo‘ravonlik va tazyiqqa uchrab tegishli joylarga murojaat qilishga majbur bo‘lyapti, ularning 87 foizi o‘z yaqin(lar)I jabridan panoh so‘ragan.

Sodir etilayotgan zo‘ravonlik ayollar uchun juda og‘ir psixologik travma hisoblanadi. Zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarning turmush sohasidagi barcha yo‘nalishlarida faoliyatning izdan chiqishi vujudga keladi. Oilada sodir bo‘lgan zo‘ravonlik ayolning emotsional holatiga yomon ta'sir qiladi. Shu bois jabrlangan ayol uchun psixologik yordam juda ham muhim. Zo‘ravonlikka uchragan ayollarga psixologik yordam ko‘rsatish qiyin vazifa hisoblanadi. Chunki zo‘ravonlikka uchragan ayollar og‘ir psixo-emotsional holatda bo‘ladilar, ular uyat, aybdorlik hissini boshdan kechiradilar, ayniqsa ushbu vaziyat oilada sodir etilgan bo‘lsa, bo‘lgan voqeani birovga aytmaslikka harakat qiladilar. Zo‘ravonlik qurbonlarida umidsizlik hissi yuqori bo‘ladi. Ularda stress, ichki noqulaylik, uyqu buzilishi, o‘z joniga qasd qilish kabi fikrlar butun vujudini qamrab oladi. Zo‘ravonlikka uchragan ayollar o‘zlariga nisbatan past baho berishi, jamiyatdagi o‘rnini to‘g‘ri tasavvur qilishlari, zo‘ravonning harakatlarini oqlashi, o‘zini aybdor his qilishi ularning psixologik yordamga muhtojligini ko‘rsatadi. Ayniqsa ayol bolalaik chog‘ida ota-onasining surunkali janjallariga guvoh bo‘lib katta bo‘lgan bo‘lsa, bu kabi holatlarga normal munosabat kabi qarashadi. Xulosa qilib shu aytish kerakki, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan, joniga qasd qilgan va shunga moyilligi bor ayollar o‘zaro aloqa o‘rnatish va psixologik yordam ko‘rsatish maqsadida 1146 ishonch telefoni yuritayotgani ham davlatimizda ayollarning har qanday sohada psixologik yordam beruvchi tashkilotlar hamda Oila va ayollarni qo‘llab-quvvatlash markazlarining faoliyat yuritishi ularni har tomonlama himoyada ekanliklarini isbotlaydi. Jamiyatimizda ayollarga psixologik maslahatlar, seminar treninglar, o‘quv kurslari tashkil etish orqali ayollarimizni yuqorida keltirilgan holatlarda o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymasliklari, o‘zi va yaqinlariga ziyon yetkazmasliklarini oldini olgan bo‘lamiz. Zero ayollarimizsiz jamiyatni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk ayol barkmol avlodni dunyoga keltiradi va tarbiya qiladi. Farzandlarimiz esa, yurtimizning porloq kelajigidir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g ‘risidagi konvensiya 1979.

2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimi takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-3827-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” 2019 yil 2 sentyabrdagi qonuni

4. Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikni oldini olish uslubiy qo‘llanma Toshkent-2020 yil